



“Involta” Ilmiy Jurnal

Vebsayt: <https://involta.uz/>

GIMENOLEPIDOZNING TARQALGANLIGI VA UNING PROFILAKTIK CHORA-TADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Samarqand Davlat Tibbiyot Instituti

To'xtarov Baxrom Eshnazarovich

Umumiy gigiena va ekologiya kafedrasi mudiri

E-mail: baxromtuxtarov@gmail.com

Nomozboyeva Maftuna Abduhamid qizi

Umumiy gigiena va ekologiya kafedrasi 1-kurs magistratura rezidenti

E-mail: maftunanomozboyeva@gmail.com

Jo'maboyev Tulqin Shokir o'g'li

№ 2 son Ichki kasalliklar kafedrasi Kardiologiya yo'nalishi 2-kurs magistratura
rezidenti

E-mail: jumaboyev.0494@gmail.com

Valiyeva Marxobo Usmanovna

Epidemiologiya kafedrasi assistenti

E-mail: Marxobo.1969a@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasi aholi orasida gimenolepidoz kasalligining tarqalganligi, epidemiologik xususiyatlari va oldini olish profilaktik chora-tadbirlari yoritilgan.

Tayanch soʻzlar: gelmintozlar, gimenolepidoz kasallanish, epidemiologiya, profilaktika.

Распространение гименолипедоза и совершенствование его мер профилактики

Аннотация: в статье описаны распространение, эпидемиологические особенности и меры профилактики гименолипедоза среди населения Республики Узбекистан

Ключевые слова: гельминтозы, гименолипедоз, эпидемиология, профилактика

The spread of hymenolipедosis and the improvement of its prevention measures

Annotation: the article describes the distribution, epidemiological features and measures for the prevention of hymenolipедosis among the population of the Republic of Uzbekistan

Keywords: helminthiasis, hymenolipедosis, epidemiology, prevention

Mavzuning dolzarbligi. Inson uchun xarakterli kasalliklar orasida gelmintozlar etakchi oʻrinlardan birini egallaydi. JSST bergan maʼlumotlarga koʻra Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasi Davlatlari aholisining 90% dan ortigʻi gelmintozlar bilan kasallanish xavfi ostida yashaydilar .

Rasmiy maʼlumotlarga koʻra, bolalar oʻtkir yuqumli kasalliklar salmogʻida parazitozlar OʻRVI dan soʻng 2- oʻrinni egallaydi. Jahon banki bahosiga koʻra esa, ichak gelmintozlari keltiradigan iqtisodiy zarar diareya, sil va yurak qon tomir kasalliklaridan soʻng 4-oʻrinda turadi. 270 dan ortiq gelmintozlar odamlarda kuzatiladigan turli kasalliklar sababchisi hisoblanadi. Ushbu kasalliklar bilan asosan goʻdak bolalar kasallanadilar. Parazitar kasalliklar deyarli hamma mamlakatlarda uchraydi. Planetamizning aholisi uchdan bir qismi parazitlar

kasalliklari qo‘zg‘atuvchilari bilan zararlangan.

Jahon miqyosida gelmintozlar bilan 1,5 milliard kishi kasallangan. Ulardan 1269 mln. askaridoz, 932 mln. ankilostomidozlar, 637 mln. trixotsefaliozlar, 353 mln. enterobiozlar, 77 mln. teniarinxozlar, 39 mln. gimenolepidozlar, 15 mln. difillobotrioizlar, 10 mln. rishta bilan kasallanganlarni tashkil etadi.

Ko‘pchilik hududlarda gelmintozlarning endemikligi ijtimoiy- iqtisodiy, tarixiy va demografik jarayonlar bilan bog‘liq. SHuning uchun ushbu kasalliklarga qarshi kurashish ham iqtisodiy, ham siyosiy jihatdan dolzarb hisoblanadi. Aholining madaniy va turmush darajasining yaxshilanganligi shahar va qishloq xo‘jaligi tadbirlarini amalga oshirish madaniyatining oshganligi hamda gelmintozlarga qarshi rejali profilaktik choralarni doimiy ravishda olib borilishi, respublikamizda ushbu parazitlar kasalliklari bilan kasallanish ko‘rsatkichlari sezilarli darajada pasayishiga olib keldi. SHu bilan birga erishilgan muvaffaqiyatlarga qaramay, O‘zbekistonda gelmintozlarning 10-12 turi qayd etilmoqda. Enterobioz, gimenolepidoz, askaridoz, teniarinxoz, trixotsefalioz kabi gelmintozlar ba‘zi viloyatlarda ommaviy ravishda tarqalgan.

O‘zbekiston sharoitida gelmintozlarga mansub gimenolepidozlar asosan Namangan, Farg‘ona, Sirdaryo va Surxondaryo viloyatlarning tog‘li va tog‘ oldi tumanlarida qolgan tumanlarga nisbatan ko‘p qayd qilinmoqda.


Tadqiqot maqsadi. Gimenolepidoz kasalligining tarqalganligi, epidemiologik xususiyatlarini o‘rganish va profilaktik chora-tadbirlarini takomillashtirish.

Tadqiqot materiyallari. Respublika SEO va JSXning gimenolepidoz bilan kasallanishi bo‘yicha rasmiy hisobotlari va epidemik o‘choqlarida o‘tkazilgan epidemiologik tekshiruv natijalarining ma‘lumotlaridan foydalanildi. Ushbu ilmiy ish bajarilishida epidemiologik va statistik usullardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari. Respublikada gimenolepidoz bo‘yicha epidemiologik vaziyatni barqaror deb bo‘lmaydi. Hozirgi vaqtda gimenolepidozga qarshi o‘tkazilayotgan chora-tadbirlar va BJSST hayrixoxligida “Gijjadan xolis bolalar”

dasturi va YUNISEF gumanitar tizimi bo'yicha berilgan preparatlar ma'lum darajada o'z samaradorligini namoyon etayotgan bo'lsa ham uni etarli darajada deb bo'lmaydi. Bunday holatni respublikamiz aholisi orasida kasallikning yildan yilga turg'un holatda qayd etib turilganligi, uning aksariyat hollarda surunkali tus olishi va noxush asoratlarga, olib kelayotganligi yaqqol ko'rsatib turibdi.

O'zbekiston Respublikasida 1992-2020 yillar davomida ro'yxatga olingan gimenolepidoz kasalligining tahlili shuni ko'rsatadiki, kasallanish ko'rsatkichi 100 ming aholiga, har xil yillarda 54,3 – 185,09 bo'lganligi aniqlandi (1-rasm). Tahlilning dastlabki yili - 2001 yilda respublikamizda gimenolepidoz bilan kasallanishning intensiv ko'rsatkichi har 100 ming aholiga – 159,19 tashkil qilgan va tahlil etilayotgan yillar mobaynidagi eng yuqori ko'rsatkich 2005 yil 185,09 ni tashkil etgan. 2016 yildan boshlab pasayish tendensiyasi kuzatilib, 2020 yil eng kam ko'rsatkich 54,3 ni tashkil etgan.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasida 2001-2020 yillarda gimenolepidoz kasalligining dinamikasi (100 000 aholiga nisbatan)

Kasallik ko'rsatkichining 2020 yilda keskin kamayishiga sabab, 2020 yil koronavirus COVID-19 pandemiyasi tufayli respublikamizning barcha aholisi pandemiya qoidalariga rioya etib, uyda bo'lishi, jamoat joylariga, bog'cha va maktablarga bormasdan sanitariya-gigiena qoidalariga qat'iy amal qilishganligi tufayli ko'pgina kasalliklarning kamayganligi kuzatildi.

Gimenolepidozning epidemiologik xususiyatlari quyidagilardan iborat: 1) ushbu parazitar kasallik kontagioz yo'l orqali yuqadi; 2) ko'pincha bog'cha yoshidagi bolalar kasallanadi; 3) klinik belgilersiz kechadi va o'lim ko'rsatkichlari nihoyatda past; 4) aholi orasida kasallanish xavfi yuqori bo'lgan dekretiv guruhlarning mavjudligi; 5) asta-sekin tarqalishi; 6) kasallikning epidemik tus olmasligi va boshqalar.

Profilaktik chora-tadbirlar. Gimenolepidozlarga qarshi muvaffaqiyatli profilaktik tadbirlarni amalga oshirishda aholining madaniyati va turmush darajasini yanada oshirish katta ahamiyatga ega.

Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish zarur bo'ladi. Aholining turli qatlamlari va ayniqsa bolalar o'rtasida sanitariya-targ'ibot tadbirlarini kuchaytirish. Profilaktik tadbirlarni doimiy ravishda amalga oshirish uchun keng jamoatchilik va mahalla faollarini jalb etish.

Shaxsiy gigiena tadbirlariga qat'iy rioya qilish. Parazitologiya sohasi bo'yicha shifokorlar, o'rta va kichik tibbiyot xodimlarining malakasini doimiy ravishda oshirib borish. Rejali ommaviy tekshiruvlarda gimenolepidozlar bilan kasallangan bemorlarni faol aniqlash va ularni davolash. Invaziya tarqalishida asosiy rol o'ynaydigan aholi guruhlari orasida bemorlarni aniqlash. Bemorlarni davolash jarayonida tashqi muhitni ularning najasi va boshqa biologik ajratmalari bilan zararlanishiga yo'l qo'ymaslik. Doimiy ravishda gelmintozlarning yuqish mavsumini, gelmintozlarning ko'plab nobud bo'ladigan muddatlarini aniqlash.

Aholini kanalizatsiya va toza ichimlik suvi tizimi bilan ta'minlash ko'rsatkichlarini yanada oshirish. Jamoat tashkilotlari, bog'lar, sayilgohlar, hiyobonlar sanitariya gigiena talablariga javob beradigan hojatxonalar qurish, har

bir hovlida axlat qutilarini o'rnatish va ularni doimiy ravishda tozalashga, chiqindilarni vaqtida olib ketilishiga erishish. Hojatxonalarda o'rindiqlar, devorlar va pollarni najas qoldiqlaridan doimiy ravishda tozalash. Kanalizatsiya bo'lmagan hojatxonalarda o'ralar, pollar va o'rindiqlarni zararsizlantirish lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdiev T.A., Suvonkulov U.T., Kovalenko D.A., Abdiev F.T., Arziev X.YU. Rasprostranennost gelmintofov v Uzbekistane // Problemy biologii i meditsiny. – Samarkand, – 2014. – №3. – S. 16-17.
2. Asadova M.M., YUldasheva K.X., Rasulov SH.M., Mirtazaeva N.A. O'zbekistonda exinokokkoz kasalligining epidemiologik xususiyatlari va uning profilaktikasi // Infeksiya, immunitet i farmakologiya. - Toshkent. 2014.- №5. -B. 31-34.
3. Onitsenko G.G. Zabolevaemost parazitarnymi boleznyami v Rossiyskoy Federatsii: nauchnoe izdanie // Epidemiologiya i infeksionnyye bolezni.-M., 2007.-S. 4-6.
4. Rasulov Sh.M., Matnazarova G.S., Mirtazayev A., Xamzayeva N.T. Improving the epidemiology, epizootology, and prevention of echinococcosis in Uzbekistan //European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 2020, Volume 7, Issue 2, Pages 3029-3052 (ejmcm.com).
5. Khidir Yu.A., Shomurod R.M., Mansur S.T. Blood Indications In Echinococcosis Of Large Horned Animals //The American Journal of Veterinary Sciences and Wildlife Discovery (ISSN–2689-0968) Published: February 27, 2021 Pages: 9-15.